

Date: 15th March-2025

**BUZOQLARNING KINDIK CHURRASI KASALLIGI VA UNING JARROHLIK
YO'LI BILAN DAVOLASH USULLARI**

Sagizbaev Maxset O'rribosarovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, o'qituvchi.

Yesboganova Maryam

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, magistrant.

Omirzaqov Gayratdin

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, magistrant.

Annotatsiya Mazkur tадqiqot Qoraqalpog'iston sharoitida buzoqlar orasida kindik churrasining uchrash darjasini va uni jarrohlik yo'li bilan davolash usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Nukus filialida va Qoraqalpog'iston Respublikasining turli hududlarida olib borildi. Ikki xil jarrohlik davolash usuli qo'llanildi: biri sefazolin antibiotigi va betadin bilan ishlov berish, ikkinchisi esa Seftraksion antibiotigi va furatselin eritmasi bilan ishlov berish. Natijalar shuni ko'rsatdiki, sefazolin va betadin bilan ishlov berilgan guruhda tiklanish tezroq kechdi. Ushbu tadqiqot kindik churrasini erta tashxislash va samarali davolash muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: buzoq, kindik churrasi, veterinariya, jarrohlik, profilaktika.

Kirish Respublikamizda chorvachilik sanoat asosiga o'tkazilib, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari ushbu sohada samaradorlikni oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kunda veterinariya amaliyotida yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Buzoqlarda kindik churrasi dunyoning deyarli barcha davlatlarida uchrab, qoramolchilik fermer xo'jaliklariga iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Ushbu kasallikni oldini olish, erta tashxis qo'yish va samarali davolash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan va yaxshi natijalarga erishilgan.

Tadqiqot uslubi Tadqiqot Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali "Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi" kafedrasiga qarashli Oquv tajriba klinikasida, va Nukus tumani "Qoniratbay-Mexriy" fermer-xojaligida olib borildi. Tadqiqotlar 1-4 oylik 2 bosh buzoqda amalga oshirildi. Tajriba ikkita guruhga ajratilib, quyidagi jarrohlik davolash usullari qo'llandi:

Birinchi guruh: Sefazolin antibiotigi (3 g) mushak orasiga yuborildi, operatsiya joyiga betadin eritmasi (1:1000) va 5% li yod eritmasi bilan ishlov berildi.

Ikkinci guruh: Seftraksion antibiotigi (4 g) mushak orasiga yuborildi, operatsiya joyiga furatselin eritmasi (1:5000) va 5% li yod eritmasi bilan ishlov berildi.

Davolash jarayoni Buzoqlarga jarrohlik amaliyoti quyidagi bosqichlarda bajarildi:

Date: 15thMarch-2025

Tayyorlov bosqichi: Hayvon 12-14 soatlik och dietada saqlandi.

Fiksatsiya va og‘riqsizlantirish: Ksilanit (1 ml) vena ishiga yuborildi.

Operatsiya texnikasi:

Operatsiya maydoniga 5% li yod surtildi.

Dabba xaltasi ajratilib olib tashlandi.

Ichaklar qorin bo‘shlig‘iga joylashtirildi.

Mushak qavati ketgut ip bilan, teri ipak ip bilan tikildi.

Tikilgan joy sterillangan bint bilan yopildi.

Operatsiyadan keyingi parvarish: Hayvonlarga natriy xlor eritmasi, askorbin kislotasi va B guruhi vitaminlari vena orqali yuborildi. Uch kun davomida antibiotig mushak orasiga yuborildi.

Natijalar va muhokama Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

Kindik churrasi bilan kasallangan buzoqlar o‘sishdan orqada qoladi.

Jarrohlik muolajalari natijasida kindik churrasi o‘z vaqtida bartaraf etilsa, tiklanish jarayoni tezlashadi.

Birinchi guruhda choklar 10-11 kunda olib tashlangan bo‘lsa, ikkinchi guruhda bu muddat 14-15 kunni tashkil etdi.

Sefazolin va betadin eritmasi bilan ishlov berilgan guruhda tiklanish tezroq kechdi.

Xulosa Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kindik churrasi bilan kasallangan buzoqlar o‘sish va rivojlanishda orqada qoladi, shu sababli kasallik belgilari namoyon bo‘lishi bilanoq zudlik bilan davolash ishlari amalga oshirilishi muhimdir. Jarrohlik yo‘li bilan davolangan hayvonlar uch kun davomida nazorat ostida bo‘lib, to‘rtinchi kunidan boshlab o‘z holicha ovqatlana boshladи.

Kasallikni erta aniqlash va samarali davolash kelajakda sog‘lom va yuqori mahsuldor chorva hayvonlarini yetishtirish uchun zamin yaratadi. Shuningdek, hayvonlarga har xil mexanik ta’sirlarning oldini olish, ularning yashash sharoitini yaxshilash ham muhim sanaladi. Fermer xo‘jaliklarida har oyda veterinar mutaxassislar tomonidan dispanserizatsiya ishlarini olib borish talab etiladi. Ushbu profilaktik choralar natijasida aholi xonadonlari va fermer xo‘jaliklarida yuqori mahsuldorlikka ega, eksteryer ko‘rsatkichlari yaxshi bo‘lgan chorva hayvonlarini yetishtirish imkoniyati oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fubini, S.L., & Ducharme, N.G. (2004). Farm Animal Surgery. Saunders Elsevier, 135-148.
2. Rings, D.M., & Tyler, J.W. (2007). Umbilical hernia repair in calves: A review. Journal of Animal Science, 85(6), 1205-1212.
3. Avezimbetov, S., Madetova, M., Madetova, N., & Joldasbaeva, V. (2023). VETERINARIYADA GEMOTERAPIYA. ANEMIYALAR VA QON ZARDOBIDA TEMIRNI ANIQLASH, QON RETRAKSIYASINI ANIQLASH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 509-516.
4. New effective methods of treatment of persistent infertility in cows AS Dosumbetovich, KS Komoladdinovich

Date: 15thMarch-2025



5. Buzoqlar kindik dabbasini xirurgik yo‘l bilan davolash Narziyev B.D.; Bekmuratov K.R VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman. -7, 2024-yil.
6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida buzoqlarda kindik dabbasining etiopatogenezini urganish Narziyev B.D.; Bekmuratov K.R AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMUY JURNALI. -4, 2024-yil.
7. Avezimbetov, S. D., Togaymuradov, M. S., & Bazarbaeva, A. A. (2021). Induction of superovulation in cattle. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1778-1781.
8. Avezimbetov, S., & Bekmuratov, K. (2021). Methods of microscopic evaluation of sperm obtained from bulls for scientific work and in production. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 403-407.
9. Авезимбетов, Ш. Д. (2020). МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ И ЛАБОРАТОРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СЕКРЕТНОГО ХРОНИЧЕСКОГО ЭНДОМЕТРИТА. *Экономика и социум*, (12 (79)), 338-341.
10. Юнусов, X. Б., Сейпуллаев, А. К., & Юлдашева, С. (2024). Особенности витаминноминерального обмена у крупного рогатого скота в приаральской зоне. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 31, 1-3.
11. Бакиров, Б., Рузикулов, Н. Б., & Сейпуллаев, А. К. (2024). ВЛИЯНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ «MIOSTA H®» НА СОСТОЯНИЕ ОБМЕНА ВЕЩЕСТВ У КОРОВ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ. *Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (3), 89-95.
12. Бакиров, Б., Рузикулов, Н., & Сейпуллаев, А. (2023). БИОГЕОЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПРИРОДА И ГЕПАТОГЕННЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ НАРУШЕНИЙ ОБМЕНА ВЕЩЕСТВ У ПЛЕМЕННЫХ КОРОВ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ. *Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (4), 44-49.
13. Бакиров, Б., Юнусов, X. Б., Сейпуллаев, А., & Нуриддинов, Ш. Ш. (2023). Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий БИОГЕОЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПРИРОДА И ГЕПАТОГЕННЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ НАРУШЕНИЙ ОБМЕНА ВЕЩЕСТВ У ПЛЕМЕННЫХ КОРОВ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ. II ТОМ, 370.
14. Юнусов, X. Б., Бакиров, Б. Б., & Сейпуллаев, А. К. (2023). РАЗВИТИЕ МИКРОЭЛЕМЕНТОЗОВ У ТЕЛЯТ В ЗОНАХ КАРАКАЛПАКСТАНА. In Актуальные проблемы лечения и профилактики болезней молодняка (pp. 436-439).